V.I. ROMONOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

QILICHOV OYBEK SHARAFIDDINOVICH

JUFT TARTIBLI XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN CHEGARAVIY MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

UDK: 517.956.6

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I. ROMONOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

QILICHOV OYBEK SHARAFIDDINOVICH

JUFT TARTIBLI XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN CHEGARAVIY MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.4.PhD/FM789 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V. I. Romanovskiy nomidagi matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingiliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http:ik-fizmat.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Djumaqilich Amanov** fizika-matematika fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Mirsaburov Miraxmat fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O’zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 17 » oktabr soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9- uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (167 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9- uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 27 » sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil « 27 » sentabrdagi 2- raqamli reestr bayonnomasi).

U. A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., pro fessor

J. K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A. A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida olib borilgan ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarni o'rganish muhimligini ko'rsatadi. Amaliy xarakterdagi masalalarni o'rganish jarayonida juft tartibli xususiy hosilali differentsial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar ustuvor yo'nalishlardan biridir. Boshlang'ich-chegaraviy masalalarni yechishning ahamiyati ularni gaz dinamikasi va magnit gidrodinamika sohalaridagi ko'plab jarayonlar masalalariga qo'llanilishi bilan izohlanadi. Amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqib, juft tartibli tenglamalar nazariyasiga e'tibor kuchaydi. Juft tartibli tenglamalar bilan bog'liq jarayonlarning murakkabligi va analitik usullarning yo'qligi sababli, juft tartibli xususiy hosilali differentsial tenglamalarni o'rganish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda matematik fizikaning dolzarb muammolaridan biri chegaraviy masalasi hisoblanadi. So‘nggi yillarda juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang'ich va chegaraviy masalalari jadal rivojlanmoqda, chunki ular amaliyotga tatbiqi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday masalalar ixtiyoriy chegaralangan sohada parabolik tipdagi tenglamalarga qo‘yilgan masalalarini yechishga keltiriladi. Hozirgi kunda global miqyosda yuqori juft tartibli xususiy hosilali differentsial tenglamalar uchun boshlang'ich va chegaraviy masalalarni o'rganish muhim rol o'ynaydi. Yuqori juft tartibli xususiy hosilali bo'lgan differensial tenglamalar uchun boshlang'ich va chegaraviy masalalarni to'g'ri qo'yish masalaning yagona yechilishini o'rnatishni talab qiladi. Yuqoridagilarni hisobga olib, maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim vazifaga aylanib borayotganini ta’kidlaymiz.

Mamlakatimizdagi fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan matematika, fizika va optimal boshqruv yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, o‘yinlar nazaryasi va boshlang'ich-chegaraviy masalalarini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratildi. Oddiy differensial tenglamalar, xususiy hosilali differensial tenglamalar va ularning sistemalari, oddiy differensial tenglamalar va ularning sistemalari orqali tavsiflanadigan jarayonlarni boshqarish nazariyasiga doir ajoyib natijalarga erishildi. “Funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari” etib belgilandi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda differensial tenglamalar va matematik fizika masalalarini hal qilishda chegaraviy va chegaraviy masalalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romonovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son Qarori va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnalogiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Chegaraviy masalalarining matematik nazariyasi o‘tgan asrda rivojlana boshlagan. Ilmiy markazlar va oliy o‘quv yurtlarida ikkinchi va yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar, shuningdek, ikkinchi va yuqori juft tartibli aralash turdagi turli xil tenglamalar uchun turli chegaraviy masalalarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususiy hosilali differensial tenglamalar fan va texnikada bir nechta parametrlarni, shuningdek, o'zgaruvchilarning boshqalariga nisbatan o'zgarishini o'z ichiga olgan real dunyoni qo'llash masalalarini modellashtirish uchun ishlatiladi. Ushbu masalalarning aksariyati chegaraviy masalalarni yechishni talab qiladi, ya'ni xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish muayyan shartlar va ma'lumotlarni qanoatlantirishga majbur bo'ladi. Biroq, real dunyo masalalarining ko'pchiligini modellashtirish juda murakkab vazifa va ko'p shakllarga ega. Aniq yechimni topish ham qiyin. Dunyo miqyosida olib borilayotgan ko’pgina ilimiy-amaliy tadqiqotlar juft tartibli, xususiy hosilali tenglamalar uchun boshlang’ich-chegaraviy masalalarning muhim ekanligini ko’rsatmoqda. Amaliy tadbiqga doir masalalarni tadqiq qilish jarayonida, juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang’ich masalalar eng ustuvor yo’nalish hisoblanadi. Chegaraviy masalalar yechimlarining muhimligi, uning tovush tezligigacha va tovush tezligi atrofidagi gaz dinamikasi, magnit gidrodinamika sohalaridagi jarayonlarning masalariga tadbig’i bilan tushuntiriladi. Juft tartibli tenglamalar bilan bog’liq murakkab jarayonlar va analitik usullarning mavjud emasligi, juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni tadqiqini dolzarb yo’nalishlardan biriga olib chiqdi.

Dunyo miqyosida yuqori juft tartibli xususiy hosilai tenglamalar uchun boshlang’ich va chegaraviy masalalar muhim rol o’ynaydi. Yuqori juft tartibli, xususuy hosilali tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni to’gri qo’yish qo’yilgan masalaning bir qiymatli yechilishini aniqlashni talab qiladi. Yuqori tartibli hosilalarni o'z ichiga olgan chegara shartlariga ega Laplas, Puasson va Helmgolts tenglamalari uchun chegaraviy masalalari Bavrin, Karachik, Sokolovskiy asarlarida o'rganilgan. Birinchi bo’lib soha chegarasining qismiga qo’yilgan yuqori tartibli masalani A.N. Tixonov o’rgangan. U ishda bir jinsli issiqlik tarqalish tenglamasini

$$\sum_{k=0}^{m} a_k \frac{\partial^k u}{\partial x^k}(0,t) = f(t),\ u(x,0) = 0,$$

shart bilan $(0 < x < \infty, t > 0)$ sohada o'rgangan. A.V. Bitsadze Laplas tenglamasini $\frac{d^m u}{dv^m} = f(x), x \in \partial D$ sharti bilan $n-$o'lchovli chegaralangan D sohada tadqiq qilgan va uning fredgolm bo'lishini isbotlagan. Yuqori tartibli hosilaga ega cheraviy shart bilan berilgan Laplas Puasson va Gelmgolts cheraviy masalalari I.I. Bavrin, V.V. Karachik va B.X. Turmetov, V.V. Karachik, V.B. Sokolovskiy va bir nechta ishlarda o'rganilgan. Quyida biz keltirilgan masalalar uchun Fury'e usulini qo'llaymiz. Normal sohalarda, umumiy bo'lgan chiziqli giperbolik va parabolik tenglamalar uchun Fury'e usulining asosli bo'lishi V.A. Ilin tomonidan ko'rsatilgan.

Hozirgi vaqtda geofizika, okeanlogiya, atmosfera fizikasi muammolari va boshqa bir qator muammolardan kelib chiqgan holda turli birjinsli bo'lmagan suyuqliklar dinamikasiga qiziqish oshgan bo'lib, ushbu tenglamalar to'rtinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarga kelib qoladi. To'sinning ko'ndalang tebranishi, to'rtinchi tartibli tenglamani o'rganishga olib keladi. Fizika va texnikaning ko'pgina muammolarini yechishga harakat qilinganda to'rtinchi va yuqori tartibli xususiy xosilali tenglamalar uchun chegaraviy masalarni tadqiq qilish o'ta ahamiyatli ekani yuzaga chiqadi. Shunga o'xshash tadqiqotlarni aralash tipdagi tenglamalar uchun muhim ekanligini A.V. Bitsadze qayd etgan. U tomonidan model tenglama sifatida to'rtinchi tartibli bir jinsli tenglamani taklif qilgan. M.M. Smironov, M.M. Meredov boshqa bir qator olimlar tomonidan to'rtinchi tartibli tenglamalar o'rganilgan. K. B. Sabitov., Zhao H., Zhu C., Yu Z mualliflar tomonidan to'rtinchi tartibli chiziqli va nochiziqli tenglamalar uchun aralash masalalar o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi matematika institutida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining F-FA-2021-424– sonli ilmiy tadqiqot grantining rejalashtirilgan mavzusiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi berilgan sohada juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun qo'yilgan, boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosilalar qatnashgan chegaraviy masalaning yechimi mavjudligi va yagonaligini isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

issiqlik tarqalish va to'sin tebranishi tenglamalari uchun boshlangich shartlarida yuqori tartibli hosilalar bo'lgan chegaraviy masalaning korrektligini isbot qilish;

to'g'ri to'rtburchak sohada, parabolik va elliptik tenglamalar uchun qo'yilgan boshlang'ich shartida vaqt bo'yicha yuqori tartibli hosilalar qatnashgan chegaraviy masalalarning yechimini topish;

juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun chegaraviy masalalarning regulyar yechimlarini baholash;

berilgan sohada parabolik va elliptik tenglamalarning yechimi mavjudligi Furye usuli bilan yagonaligi esa spektral usul yordamida isbotlash.

Tadqiqotning ob'yekti. Boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosilalar qatnashgan to'rtinchi tartibli parabolik va elliptik tipdagi tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti. Parabolik va gipoelliptik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosila qatnashgan masalalari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik fizikaning zamonaviy usullari, Furye usuli va Furye qatorlari nazariyalaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich shartida k-tartibli hosila qatnashgan parabolik va elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimi, k sonining juft yoki toqligiga bog'liqligi ko'rsatilgan;

to'g'ri to'rtburchak sohada, boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosilalar bo'lgan to'rtinchi tartibli tenglamalar uchun qo'yilgan chegaraviy masalalarning regulyar yechimi mavjudligi va yagonaligi isbotlangan;

boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosilalar qatnashgan to'rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarga qo'yilgan chegaraviy masalalar uchun rekurent formulalar tuzilgan;

berilgan sohada parabolik va elliptik tenglamalarning yechimi mavjudligi Furye usuli bilan yagonaligi esa spektral usul yordamida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya ishida olingan natijalar va qo'llanilgan usullar oliy o'quv yurtlari magistrantlari va doktorantlari uchun magistratura bosqichi sifatida o'qitilishi mumkin. Bundan tashqari, parabolik, gipoelliptik va parabolik tipdagi tenglamalar bo'yicha dissertatsiya natijalari boshqa turdagi tenglamalar uchun qo'llash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar matematik fizikaning zamonaviy usullari, matematik tahlil usullaridan foydalanilgan holda olingan. Olingan natijalarning isbotlari matematik jihatdan to'g'ri.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, berilgan to'g'ri to'rtburchak sohada Dirixli yoki boshlang'ich shartlari bilan berilgan juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chagaraviy masalalarni yechimini topish usulini va boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosilalar bilan berilgan masalalarda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa magistrlarni tayyorlashda hamda boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosila qatnashgan, ikkinchi va to'rtinchi tartibli tenglamalarga qo'yilgan lokal va nolokal chegaraviy masalalarni matematik modellashtirishda qo'llash imkoni bilan belgilaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang'ich va chegaraviy masalalar bo'yicha olingan natijalar asosida:

boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosilalar qatnashgan juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalaning regulyar yechimning mavjudligidan С-ОКП-17 raqamli "Takomillashtirilgan 138 arrali jin ishchi kamerasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida juft tartibli differensial operatorlar uchun chegaraviy masalalarning korrektligini tekshirishda

foydalanilgan (Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 2023 yil 5-iyundagi №422-3-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi differensial operatorlar uchun chegaraviy masalalarning yagona yechimi mavjudligini isbotlash imkonini bergan;

to'rtinchi tartibli xususiy hosilali parabolik va elliptik tipdagi tenglamalar uchun boshlang'ich shartida k-va k+1- tartibli hosilalar qatnashgan chegaraviy masalalarning yechimlaridan Rossiya Federatsiyasi Prezidentining № МД-758.2022.1.1 raqamli loyiha doirasida dinamik jarayonlarni o'rganishda foydalanilgan (Kamchatka davlat universitetining 2023 yil 24-yanvardagi №02-12-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning loyiha ishida qo'llanilishi matematik fizika tenglamalari uchun qo'yilgan chegaraviy masalalarning regulyar yechimini topish, yechimdagi qatorlarning absolyut va tekis yaqinlashishini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissirtatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalarini asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 93 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot berilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari belgilangan, tadqiqotning ob'yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, ilmiy-tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzulishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "$u_t + u_{xxxx} = f(x,t)$ **tenglama uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar**" deb nomlangan birinchi bobida $u_t + u_{xxxx} = f(x,t)$ tenglama uchun boshlang'ich-chegaraviy masala qaralgan.

Birinchi paragrafda chegaraviy masalalarni o'rganishda foydalaniladigan asosiy tushunchalar va ba'zi yordamchi formulalar keltirilgan.

Ikkinchi paragrafda boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosila qatnashgan, parabolik tenglama uchun lokal chegaraviy masalasi ko'rib chiqiladi.

Uchinchi paragrafda $u_t + u_{xxxx} = f(x,t)$ tenglama uchun nolokal chegaraviy masalasi o'rganildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Boshlang’ich shartlarida vaqt bo’yicha yuqori tartibli hosilalar bo’lgan nostasionar tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalar”** deb nomlangan.

Birinchi paragrafda to‘g‘ri to‘rtburchak sohada issiqlik tarqalish tenglamasi uchun boshlang’ich shartida yuqori tartibli hosila qatnashgan nolokal chegaraviy masala tadqiq qilingan.

Ikkinchi paragrafda to’sin tebranish tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalasi o'rganilgan. Bu to’rtinchi tartibli tenglama mexanik masalalarni yechishda zarur tenglamalardan biri hisoblanadi. Bu paragrafda qaralgan masala boshlang’ich shartida tenglama tartibidan oshib ketadigan t ga nisbatan yuqori tartibli hosilalar berilgan.

Berilgan $\Omega = \{(x,t): 0 < x < p,\ 0 < t < T\}$ to’g’ri to’rtburchakda

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + \frac{\partial^4 u}{\partial x^4} = f(x,t) \tag{1}$$

to’sin tebranish tenglamasini

$$u(0,t) = 0,\ \ u(p,t) = 0,\quad 0 \le t \le T, \tag{2}$$

$$u_{xx}(0,t) = 0,\ u_{xx}(p,t) = 0,\ \ 0 \le t \le T, \tag{3}$$

chegaraviy shartlar va vaqt bo’yicha yuqori tartibli hosila qatnashgan

$$\frac{\partial^k u}{\partial t^k}(x,0) = \varphi_k(x),\quad 0 \le x \le p, \tag{4}$$

$$\frac{\partial^{k+1} u}{\partial t^{k+1}}(x,0) = \psi_k(x),\quad 0 \le x \le p, \tag{5}$$

boshlang’ich shartlar bilan ko’rib chiqamiz.

Bu yerda $f(x,t)-$funksiya $\overline{\Omega}$ da uzluksiz funksiya va $1 \le k -$tayinlangan natural son.

1-Masala. (1) tenglamaning Ω sohada, (2)-(5) shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,t)$ yechimini toping. Masala yechimining yagonaligi spektral usul bilan isbotlangan.

1-teorema. (1)-(5) masalaning yechimi yagona bo’ladi, agar u mavjud bo’lsa.

Furye usulidan foydalanib, 1-masalaning yechimini ushbu

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} X_n(x)\left\{ \frac{\varphi_{kn}}{\left(\lambda_n^2\right)^k}\cos\left(\frac{\pi k}{2} - \lambda_n^2 t\right) - \frac{\psi_{kn}}{\left(\lambda_n^2\right)^{k+1}}\sin\left(\frac{\pi k}{2} - \lambda_n^2 t\right) - \right.$$

$$- \sum_{s=0}^{\left[\frac{k}{2}\right]-1} (-1)^s \frac{f_n^{(k-2-2s)}(0)}{\left(\lambda_n^2\right)^{k-2s}}\cos\left(\frac{\pi k}{2} - \lambda_n^2 t\right) +$$

$$\left. + \sum_{s=0}^{\left[\frac{k+1}{2}\right]-1} (-1)^s \frac{f_n^{(k-1-2s)}(0)}{\left(\lambda_n^2\right)^{k+1-2s}}\sin\left(\frac{\pi k}{2} - \lambda_n^2 t\right) + \frac{1}{\lambda_n^2}\int_0^t f_n(\tau)\sin\lambda_n^2(t-\tau)\,d\tau \right\} \tag{6}$$

ko’rinishda olamiz.

2-teorema. Agar

$$f(x,t)\in W_2^{(2k+1,k-1)}(\Omega),\ \varphi_k(x)\in W_2^3(0,p),\ \psi_k(x)\in W_2^1(0,p),$$

$$\varphi_k(0)=\varphi_k(p)=0,\ \varphi_k''(0)=\varphi_k''(p)=0,\ \psi_k(0)=\psi_k(p)=0,$$

$$\frac{\partial^{2l}f(0,t)}{\partial x^{2l}}=\frac{\partial^{2l}f(p,t)}{\partial x^{2l}}=0,\ l=0,1,...,(k),$$

$$\frac{\partial^{2l+1}f(0,t)}{\partial t\partial x^{2l}}=\frac{\partial^{2l+1}f(p,t)}{\partial t\partial x^{2l}}=0,\ l=0,1,...,(k-1),$$

$$\frac{\partial^{2l+2}f(0,t)}{\partial t^2\partial x^{2l}}=\frac{\partial^{2l+2}f(p,t)}{\partial t^2\partial x^{2l}}=0,\ l=0,1,...,(k-3)$$

shartlar bajarilsa, (6) qator $\overline{\Omega}$ sohada absolyut va tekis yaqinlashuvchi bo'ladi. (6) funksional qator bilan aniqlangan yechim, (1) tenglamani qanoatlantiradi va (2)-(5) shartlar bajariladi.

Dissertatsiyaning **"To'rtinchi tartibli tenglama uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalar"** deb nomlangan uchinchi bobida chekli sohada to'rtinchi tartibli tenglama uchun lokal va nolokal masalalar o'rganilgan. Bu masalalarning boshlang'ich shartlarida tenglama tartibidan oshib ketadigan bitta o'zgaruvchiga nisbatan yuqori tartibli hosilalar berilgan. Har bir masala yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarning ko'p turlari uchun chegaraviy masalalar ko'plab mualliflarning ishlarida o'rganilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masala o'rganilgan.

2-masala. Berilgan chekli $\Omega=\{(x;\ y):0\ <x<\ p,\ 0<\ y<T\}$ to'g'ri to'rtburchak sohada

$$\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}=\frac{\partial^4 u}{\partial x^4}+f(x,y) \tag{7}$$

to'rtinchi tartibli tenglamaning

$$u(0,y)=u(p,y)=0,\quad 0\le y\le T, \tag{8}$$

$$u_{xx}(0,y)=u_{xx}(p,y)=0,\quad 0\le y\le T, \tag{9}$$

chegaraviy shartlar va

$$\frac{\partial^k u}{\partial y^k}(x,0)=\varphi(x),\ 0\le x\le p, \tag{10}$$

$$\frac{\partial^k u}{\partial y^k}(x,T)=\psi(x),\ 0\le x\le p, \tag{11}$$

boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ yechimi topilsin.

Bu yerda $f(x,y),\ \varphi(x),\ \psi(x)-$funksiyalar $\overline{\Omega}$ sohada uzluksiz, $2\le k-$ tayinlangan natural son.

3-teorema. Agar (7)-(11) masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u yechim yagona bo'ladi. Teorema spektral usul yordamida isbot qilinadi.

Furye usulidan foydalanib, 2-masalaning yechimini

$$u(x,y)=\sum_{n=1}^{\infty}X_n(x)\left[-\frac{e^{-\lambda_n^2(T-y)}-(-1)^k e^{\lambda_n^2(T-y)}}{\left(\lambda_n^2\right)^k\left(e^{\lambda_n^2T}-e^{-\lambda_n^2T}\right)}\cdot\varphi_n+\frac{e^{\lambda_n^2y}-(-1)^k e^{-\lambda_n^2y}}{\left(\lambda_n^2\right)^k\left(e^{\lambda_n^2T}-e^{-\lambda_n^2T}\right)}\cdot\psi_n-\right.$$

$$-\frac{e^{\lambda_n^2y}-(-1)^k e^{-\lambda_n^2y}}{\left(\lambda_n^2\right)^k\left(e^{\lambda_n^2T}-e^{-\lambda_n^2T}\right)}\sum_{s=0}^{\left[\frac{k+(-1)^k}{2}\right]-1}\lambda_n^{4s}f_n^{(k-2-2s)}(T)+$$

$$\left.+\frac{e^{-\lambda_n^2(T-y)}-(-1)^k e^{\lambda_n^2(T-y)}}{\left(\lambda_n^2\right)^k\left(e^{\lambda_n^2T}-e^{-\lambda_n^2T}\right)}\sum_{s=0}^{\left[\frac{k+(-1)^k}{2}\right]-1}\lambda_n^{4s}f_n^{(k-2-2s)}(0)-\frac{1}{\lambda_n^2}\int_0^T K_{1n}(y,\tau)f_n(\tau)d\tau\right] \quad (12)$$

ko'rinishda topamiz. Bu yerda,
agar k-juft son bo'lsa,

$$K_{1n}(y,\tau)=\begin{cases}\dfrac{sh\lambda_n^2\tau\cdot sh\lambda_n^2(T-y)}{sh\lambda_n^2T},\ 0\le\tau\le y,\\ \dfrac{sh\lambda_n^2y\cdot sh\lambda_n^2(T-\tau)}{sh\lambda_n^2T},\ y\le\tau\le T,\end{cases}$$

va k-toq son bo'lsa,

$$K_{1n}(y,\tau)=\begin{cases}\dfrac{ch\lambda_n^2\tau\cdot ch\lambda_n^2(T-y)}{sh\lambda_n^2T},\ 0\le\tau\le y,\\ \dfrac{ch\lambda_n^2y\cdot ch\lambda_n^2(T-\tau)}{sh\lambda_n^2T},\ y\le\tau\le T.\end{cases}$$

4-teorema. Agar $f(x,y)\in W_2^{(2k-1,k-2)}(\overline{\Omega})$, $\varphi(x)\in W_2^1(0,p)$, $\psi(x)\in W_2^1(0,p)$,

$$\varphi(0)=\varphi(p)=0,\ \psi(0)=\psi(p)=0,$$

$$\frac{\partial^{2l}f(0,y)}{\partial x^{2l}}=\frac{\partial^{2l}f(p,y)}{\partial x^{2l}}=0,\ l=0,1,...,(k-1),$$

$$\frac{\partial^{2l+1}f(0,y)}{\partial y\,\partial x^{2l}}=\frac{\partial^{2l+1}f(p,y)}{\partial y\,\partial x^{2l}}=0,\ l=0,1,...,(k-3),$$

shartlar bajarilsa, u holda (12) qatorlar $\overline{\Omega}$ sohada tekis va absolyut yaqinlashadi, (12) qator bilan aniqlangan $u(x,y)$ funksiya (7) tenglamani va (8)-(11) shartlarni qanoatlantiradi.

Ikkinchi paragrafda berilgan chekli $\Omega=\{(x,y):0<x<p,\ 0<y<q\}$ sohada biz

$$\frac{\partial^2 u}{\partial y^2} - \frac{\partial^4 u}{\partial x^4} = f(x,y) \tag{13}$$

differensial tenglamani qaraymiz, bu yerda $f(x,y)-$funksiya $\overline{\Omega}$ sohada berilgan uzluksiz funksiya.

3-masala. (13) tenglamaning

$$u(0,y)=0,\ \ u(p,y)=0,\quad 0\le y\le q, \tag{14}$$

$$u_{xx}(0,y)=0,\ u_{xx}(p,y)=0,\ \ 0\le y\le q, \tag{15}$$

chegaraviy va

$$\left.\frac{\partial^k u}{\partial y^k}\right|_{y=0} = \left.\frac{\partial^k u}{\partial y^k}\right|_{y=q}, \qquad 0\le x\le p, \tag{16}$$

$$\left.\frac{\partial^{k+1} u}{\partial y^{k+1}}\right|_{y=0} = \left.\frac{\partial^{k+1} u}{\partial y^{k+1}}\right|_{y=q}, \qquad 0\le x\le p, \tag{17}$$

boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ yechimini toping. Bu yerda $1\le k-$ tayinlangan natural son.

5-teorema. Agar (13)-(17) masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u holda bu yechim yagona bo'ladi. Teorema spektral usuli qo'llanilib isbotlangan.

Uchinchi masalaning yechimini, o'zgaruvchilarni ajratish usuli yordamida ushbu

$$u(x,y)=\sum_{n=1}^{\infty} X_n(x)\Bigg[K_{0n}(y)\sum_{s=0}^{\left[\frac{k-2}{2}\right]}\lambda_n^{4s-2k}\left(f_n^{(k-2-2s)}(q)-f_n^{(k-2-2s)}(0)\right)+$$

$$+M_{0n}(y)\sum_{s=0}^{\left[\frac{k-2}{2}\right]}\lambda_n^{4s-2k-2}\left(f_n^{(k-1-2s)}(q)-f_n^{(k-1-2s)}(0)\right)+$$

$$+M_{0n}(y)\frac{H_k}{\lambda_n^4}\left(f_n(q)-f_n(0)\right)+\frac{1}{2\lambda_n^2}\int_0^q K_{1n}(y,\tau)f_n(\tau)d\tau\Bigg] \tag{18}$$

ko'rinishda olamiz.

Bu yerda, agar $k-$ juft son bo'lsa,

$$K_{0n}(y)=\frac{ch\lambda_n^2 y - ch\lambda_n^2(y-q)}{2(1-ch\lambda_n^2 q)},\ \ M_{0n}(y)=\frac{sh\lambda_n^2 y - sh\lambda_n^2(y-q)}{2(1-ch\lambda_n^2 q)},$$

$k-$ toq son bo'lsa,

$$K_{0n}(y)=\frac{sh\lambda_n^2 y - sh\lambda_n^2(y-q)}{2(1-ch\lambda_n^2 q)},\ \ M_{0n}(y)=\frac{ch\lambda_n^2 y - ch\lambda_n^2(y-q)}{2(1-ch\lambda_n^2 q)}.$$

$$K_{1n}(y,\tau)=\begin{cases}\dfrac{sh\lambda_n^2(q-y+\tau)+sh\lambda_n^2(y-\tau)}{(1-ch\lambda_n^2 q)}, & 0<\tau<y,\\ \dfrac{sh\lambda_n^2(q+y-\tau)-sh\lambda_n^2(y-\tau)}{(1-ch\lambda_n^2 q)}, & y<\tau<q.\end{cases}$$

6-teorema. Agar $f(x,y)\in W_2^{(2k+1,k-1)}(\Omega)$,

$$\frac{\partial^{2l}f(0,y)}{\partial x^{2l}}=\frac{\partial^{2l}f(p,y)}{\partial x^{2l}}=0,\ l=0,1,...,k,$$

$$\frac{\partial^{2l+1}f(0,y)}{\partial y\partial x^{2l}}=\frac{\partial^{2l+1}f(p,y)}{\partial y\partial x^{2l}}=0,\ l=0,1,...,k-1,$$

$$\frac{\partial^{2l+2}f(0,y)}{\partial y^2\partial x^{2l}}=\frac{\partial^{2l+2}f(p,y)}{\partial y^2\partial x^{2l}}=0,\ l=0,1,...,k-3,$$

shartlar o'rinli bo'lsa, u holda (18) qator $\overline{\Omega}$ sohada absolyut va tekis yaqinlashuvchi bo'ladi. (18) yechim (13) tenglamani va (14)-(17) shartlarni qanoatlantiradi.

XULOSA

- Birinchi bobning birinchi paragrafida asosiy tushunchalar va ba'zi formulalar keltirilgan. Ikkinchi paragrafda parabolik tenglama uchun chegaraviy lokal masala yechilgan. Masala yechimi mavjud va yagona ekanligi isbot qilingan. Uchinchi paragrafda to'rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun boshlang'ich shartida k-tartibli hosila qatnashgan chegaraviy masala o'rganilgan. Masala yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlagan.
- Ikkinchi bobning birinchi paragrafida issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal chegaraviy masala yechilgan, masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbot qilingan. Ikkinchi paragrafda mexanianing asosiy tenglamalaridan biri bo'lgan, to'rtinchi tartibli to'sin tebranish tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masala yechilgan, masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.
- Uchinchi bobda, to'rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun boshlang'ich shartida yuqori tartibli hosila qatnashgan lokal va nolokal chegaraviy masalalar o'rganilgan. O'rganilgan masalalarning yechimi mavjudligi haqidagi teoremalar Furye usuli bilan, yagonaligi haqidagi teoremalar esa spektral usul bilan isbot qilingan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

KILICHOV OYBEK SHARAFIDDINOVICH

BOUNDARY VALUE PROBLEMS FOR PARTIAL DERIVATIVE EQUATIONS OF EVEN ORDER

01.01.02-Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2023

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number №B2022.4.PhD /FM789.

Dissertation has been prepared at Mathematics Institute named V. I. Romanovsky.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:	**Amanov Djumaklych** Doctor of Sciences in Physics and Mathematics
Official opponents:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, Professor
	Mirsaburov Mirakhmat Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, Professor
Leading organization:	**National University of Uzbekistan**

Defense will take place « 17» October 2023 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 207-91-40, e-mail : uzbmath@umail.uz, Website : www.mathinst. uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy (is registered № 167) (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 207-91-40).

Abstract of dissertation sent out on « 27 » September 2023 year
(Mailing report № 2 on « 27 » September 2023 year)

U.A. Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Professor

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

A.A. Azamov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the thesis. Many scientific and practical studies carried out on a global scale show the importance of studying initial-boundary problems for differential equations with partial derivative of even order. In the process of studying problems of a practical nature, boundary value problems for even-order partial differential equations are one of the priority directions. The importance of solving initial-boundary problems is explained by their application to problems of many processes in the fields of gas dynamics and magnetohydrodynamics. Due to the needs of practice, the attention to the theory of even-order equations has increased. Due to the complexity of processes related to even-order equations and the lack of analytical methods, the study of even-order partial differential equations is one of the priority directions.

Currently, one of the urgent problems of mathematical physics is the boundary problem. In recent years, initial and boundary value problems for even-order partial differential equations have been rapidly developing, as they are closely related to practical applications. Such problems are brought to the solution of parabolic-type equations in an arbitrary bounded area. Nowadays, the study of initial and boundary value problems for high-order partial differential equations on a global scale plays an important role. For differential equations with higher even-order partial derivatives, the correct formulation of the initial and boundary value problems requires the establishment of a unique solution to the problem. Taking into account the above, we emphasize that the implementation of targeted scientific research is becoming an important task.

In our country much attention has been paid to mathematics, physics and optimal management, which have scientific and practical application of fundamental sciences. In particular, special attention was paid to the research of game theory and initial-boundary problems. Excellent results have been achieved on the theory of control of processes characterized by ordinary differential equations, differential equations with particular derivatives and their systems, ordinary differential equations and their systems. "The main tasks and areas of activity are to conduct scientific research at the level of international standards in functional analysis, differential equations and the priority areas of mathematical physics". It is important to develop boundary and boundary problems in solving problems of differential equations and mathematical physics in ensuring the execution of decisions.

